

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

1-son

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4** O'qigan kishi, yangi fikr, yangi g'oya va tashabbuslar bilan yuradi



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- O. Musurmanova 6** Inson qadrini ulug'lash-farovon mahalla poydevori
- X. Ibragimov 10** Kommunikativ kompetensiya – bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim mezonlari sifatida
- O. Ro'zibayev 14** Ta'lim jarayonida talabalarning kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari
- J. Meliqo'ziyev 17** Diniy-ma'rifiy soha taraqqiyotining yangi davrida tashkiliy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarning mustahkamlanishi
- N. Xujayarova 23** Bo'lajak pedagoglarda kreativ sifatlarning shakllanishi
- K. Kayumova, F. Tolipov 26** Ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etishning ayrim nazariy-metodologik jihatlari xususida
- S. Yuldashev 31** Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanining ahamiyati
- D. Ximmataliyev, A. Jumanov 35** Kasb ta'limi o'qituvchilarini pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash
- M. Parpiyeva 38** Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy autopedagogik kompetentlikni rivojlantirish
- D. Shahrudodova 43** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish tamoyillari
- M. Maksumova 46** Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
- Sh. Xayitova 49** Innovatsion yondashuv asosida talabalarni mustaqil faoliyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari
- D. Abdullayev 52** O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimizning o'rnini



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- L. Namazbayeva 56** Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
- M. Atoyeva 59** Fizika ta'limida sinergetik texnologiyalarning ahamiyati
- G. Yaxyoyeva 63** Chet tilini o'qitish jarayonida talabalar ijodiy faolligini rivojlantirishning pedagogik shartlari
- O'. Farmonov 65** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirish



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Niyozqulov 69** Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish
- A. Abdazimov 72** Kredit-modul tizimi – oliy ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasining ijtimoiy-pedagogik asosi



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- Sh. Ne'matov 76** Uyg'onish davri ma'rifatparvarlari faoliyati: tadqiq va xulosa

maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllari haqidagi bilimlar;

– texnologik, rivojlanayotgan o'quv texnologiyalari va ularni amalga oshirish haqidagi bilimlarga asoslangan.

Kognitiv komponentni ijodiy faoliyat tarkibidagi tahlili bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni uning shakllanishining mezon ko'rsatkichi sifatida ajratishga imkon beradi. Xulq-atvor komponenti ijodiy faoliyatning amaliy, samarali tomonini tavsiflaydi. Bu talabalarning ta'lim va kasbiy faoliyatda o'zini o'zi aniqlashi va o'zini namoyon qilishiga qaratilgan. Shaxsning kasbda o'zini namoyon qilishi va o'zini o'zi belgilashi, odamni kasbga qo'shishning rasmiy yoki ijodiy usuli ham professional harakatning xarakterini, ham shaxsning hayotiy nuqtai nazarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining – Oliy ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarda faol ishtirokini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida*”gi Qarori.

2. Yahyoyeva G.B. *Universitet talabalariga chet tilini o'rgatish bo'yicha ijodiy loyiha faoliyati texnologiyasini oshirish, “Biznes akademiyasi” Markaziy biznes markazi nashriyoti, Saratov 2021. 18-21-betlar.*

3. G.B. Yahyoyeva *Universitet talabalariga chet tilini o'rgatish bo'yicha ijodiy loyiha faoliyati texnologiyasini takomillashtirish/ Xalqaro so'z san'ati jurnali/ Maxsus soni – 3/ O'zbekiston-2020, 568-562-betlar.*

4. Aliksichuk A. *Jahon san'at madaniyati maktabi kursi va uni o'qitish usullari fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarning loyiha faoliyati: darsliklar/ - Kamianets-Podilskiy Ogienko, 2008. – 31-b.*

O'ktam FARMONOV,

Chirchiq davlat pedagogika instituti, “Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası
o'qituvchisi

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA FIKRLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirish mohiyati, turlari, xususiyatlari va uning ijodiy faoliyatdagi ahamiyati ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar. O'qituvchi, o'quvchi, fikrlash, madaniyat, o'qitish, aqliy, qobiliyat, ilmiy, tarbiya, g'oya, emperik, bilim, ko'nikma, malaka, dunyoqarash.

В этой статье с научно-педагогической точки зрения обосновано значение сущности, видов, особенностей формирования культуры мышления у будущих учителей начальных классов в творческой деятельности.

Ключевые слова. Учитель, ученик, мыслить, культура, обучение, умственная деятельность, научный, воспитание, идея, эперистический (эмперический), знание, навык, умение, мировоззрение.

In this article, from a scientific and pedagogical point of view, the meaning of the essence, types, features of the formation of a culture of thinking in future primary school teachers in creative activity is substantiated.

Key words. Teacher, student, thinking, culture, learning, mental activity, scientific, upbringing, idea, eperistic (empirical), knowledge, skill, skill, worldview.

Fikrlash – bu insonga xos bo'lgan mantiqiy jarayon bo'lib, aql, ong, fikr, g'oya kabi aqliy jihatlar negizida vujudga keladi. Fikrlash jarayoni inson aqliy faoliyatining maxsus shakli sifatida ijtimoiy hayot sharoitida tushunchalar, so'zlar, fikrlar, g'oyalarda namoyon bo'ladi. Aqliy-xayoliy jarayonlar yordamida fikrlash mazmun-mohiyatini ochib berish mumkin bo'ladi. Shuningdek, fikrlash aqliy maqsad – vazifalarini belgilab olishda didaktik asos bo'la oladi. Shu sababli fikrlash turlarini tanlashda katta intellektual salohiyat talab qilinadi. Ya'ni har bir shaxs ongli ravishda fikrlash holatini amalga oshiradi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalari talabalarida fikrlash madaniyatini shakllantirish uchun axborotlar muhiti, didaktik ma'lumotlar, didaktik vositalar, intellektuallashtirilgan o'qitish vositalari kabilarning bir butun yaxlit holatda amalga oshirilishi o'rganilayotgan soha bo'yicha nazariy tushunchalarni, hodisalarni, qonunlarni, qoidalarni amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Fikrlashning bir qancha turlari mavjud. Ulardan biri emperik fikrlash sanaladi. Emperik fikrlash esa bevosita dalillarga asoslanadi. U xususiy tasdiqlashga tayanadi va ularga asoslanadi. Emperik fikrlashda tajriba va manbaga oid dalillar muhim didaktik asos bo'lib hisoblanadi va bu jarayonda xulosalash muhim o'rin tutadi.

Ilmiy fikrlash deganda, ilmiy ishning sifati va samaradorligini ta'minlashdagi ishlanmalar yaratishda nazariy xulosalar umumlashtiriladi. Nazariy va amaliy fikrlash doimo rivojlanishda bo'lgani sababli uning maqsad-vazifalariga amal qilgan holda unga qo'yilgan talablar asosida ilmiy-metodik jihatdan asoslab olishga to'g'ri keladi. Ilmiy fikrlash muammoning o'rganilganlik darajasi natijalarini va ulardagi nazariy hamda amaliy ishlanmalarining mukammalligi, ularning ta'limni optimallashtirishdagi ahamiyati va bo'lajak mutaxassislarni ijodiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni kabilarni chuqur tahlil qilib chiqish muhim. Ilmiy fikrlash davomida kerakli tuzatishlarni kirita olish va olingan natijalarni ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash, xulosalar va tavsiyalarni shakllantirish kabilarni ketma-ketlikda amalga oshirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Ammo, uni amalga oshirish jarayonlari ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'z samarasini ko'rsatadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlash muammosini hal etish va bu muammoning jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti bilan qanday bog'langanligini ochib berishga harakat qilishda talabalarning fikrlash madaniyatini hal qilish strategiyasini rivojlantirish rejasini tuzish va ushbu muammo yechimini topishda ularning modellarini tuzishga e'tibor beriladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida fikrlash madaniyatini shakllantirishda modellashtirish va shu kabi metodlar bo'yicha kasbiy va ilmiy faoliyatlari takomillashadi. Buning mazmun mohiyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, insondagi fikrlash uni ijod qilishga undaydi. Ya'ni undagi ijodkorlik faoliyatlari poydevori yaratilayotganligidan dalolat bera boshlaydi. Shuning bilan birga kishining ijod qilishida aql, ong, fikr, fikrlash, ilm, bilim va shu kabilarning uzviyligiga erishiladi. Ular negizida inson "ijod"ga kirishishi mumkin bo'ladi. Bu borada ijodga turli ta'riflar berilgan.

Fikrlash – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati bo'lib, ular uning mahorati, badiiy, ilmiy asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish;

yaratuvchilik jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, fikrlash – aqliy faoliyat mahsuli bo'lib, u insonni intellektual salohiyatli qiladi. Ya'ni insondagi tafakkur qilish qobiliyati uni yaratuvchilikka yetaklaydi.

Fikrlash faoliyati tabiat va jamiyat hodisalarining o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sir qilib turishi ularning doimiy harakatda, rivojlanish va o'zgarishda bo'lib turishini ko'rsatib beradi. Fikrlash jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lib, biri ikkinchisidan kelib chiqadi. Fikrlash doimo o'zgarish va rivojlanishda bo'ladi. Shu jihatdan ham fikrlash madaniyati ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning hamma tomonlari inson ongida aks etishi katta amaliy va ilmiy ahamiyatga ega. Fikrlash madaniyati dunyoni inson ongida bir yaxlit, uzviy aloqadorlik va rivojlanish tarzida aks ettirishning falsafiy xususiyatlarini tashkil etadi. Lekin bu uning yakkayu yagona maqsadi emas. Fikrlash madaniyatining falsafiy dunyoqarashi shundaki, narsa va hodisalarni inson ongida bir yaxlit aks ettirish bilan bir qatorda, kishilarning tafakkurlash madaniyatini, ichki ma'naviy dunyosini shakllantiradi va boyitadi. Shuningdek, kishilarga xos bo'lgan rostgo'ylik, poklik, insonparvarlik va boshqa olijanob fazilatlarini, axloqiy me'yorlar, qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Fikrlash madaniyati odamlarni birlashtiruvchi jarayon hisoblanadi.

Fikrlash madaniyati inson dunyoqarashini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fikrlash madaniyati umumiy tarzda inson va jamiyatning barcha turlaridagi natijalari sifatida kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi. Fikrlash madaniyati tushunchasi muayyan tarixiy davrlar, elat va millatlar taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy hayot darajasini, shuningdek, inson faoliyati yoki turmushini izohlash uchun qo'llanildi. Fikrlash madaniyati juda murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarini, inson mehnat faoliyatining barcha jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Fikrlash madaniyati inson yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda, millatlar taraqqiyoti, moddiy va ma'naviy hayotda, inson faoliyati va turmushning o'ziga xos sohalarida qo'llaniladi. U odamzod aql – idrokining eng yuksak cho'qqilarigacha bo'lgan tuyg'ularning hammasini qamrab oladi.

Fikrlash madaniyati inson uchun suv va havodek zarur. Chunki bu dunyo, jamiyat, oila, ota-ona, bolalar, xalq, mustaqil davlatimiz taraqqiyoti insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinligi kabilarning rivojlanishi bevosita fikrlash madaniyatiga bog'liqdir.

Fikrlash madaniyati insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi.

Jamiyat, davlat, xalq va millat, inson shaxsining fikrlash madaniyatiga bo'lgan ehtiyoji shu qadar katta va benihoyaki, uni hech qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yish tamomila xatodir. Fikrlash madaniyati tushunchasi ijtimoiy hayotning ma'lum bir sifatida kishilarning mehnat jarayonida jamlangan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o'zaro munosabatlarini namoyon etuvchi jarayon hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining intellektual salohiyatini shakllantirishda fikrlash madaniyati asos bo'la oladi. Bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimida millat ruhiyatining nozik jihatlariga kirib borish va boshlang'ich ta'limda savodxonlik asoslarini puxta egallashga keng imkoniyatlar yaratilgan. Ana shu sababli ham bugungi ta'lim tizimimiz jamiyatimiz taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda va unga barkamol avlodni shakllantirishdek muhim vazifa qo'yilgan. Ayni paytda barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonining obyektigina emas, balki subyekti, ya'ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lim

oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning mustaqil hamda erkin fikrlashlarini ta'minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi yoshlarda tarbiyalash va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda.

Fikrlash madaniyati bu – tabiat, jamiyat, tafakkur haqidagi bilimga ega bo'lish demakdir. Buning uchun talaba yoshlar tabiiy, ijtimoiy va gumanitar, mutaxassislik fanlarini chuqur o'rganadilar. Mustaqil fikrlash natijasida talabaning ta'limdagi faolligi rivojlanadi. Shuni aytish kerakki, har qanday faollik zaminida mustaqil fikrlash faoliyati yotadi. Ko'rgazmali qurollar tayyorlash, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok etish, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash madaniyati namoyon bo'ladi.

Buning uchun talabalar ilmiy ommabop, o'quv badiiy va boshqa adabiyotlarni mustaqil ravishda o'qishi va o'rganishi, yangi axborot texnologiyalardan, internetdan foydalanishi, dars mashg'ulotlarida ijodiy fikrlashi, didaktik o'yinlar, munozara kabilarda ishtirok etishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashi, ilg'or ish tajribalarini o'rganishi, to'plashi, tanlashi, qo'llashi, talabalarning an'anaviy anjumanlarida, ilmiy amaliy seminarlarida ishtirok etishi, o'z ish tajribalarini ommalashtirishi, fikr va mulohazalari, takliflari, tavsiyalari bilan matbuotda, radio va televideniya da ishtirok etishlari zarur.

Fikrlash madaniyatini shakllantirishning quyidagi usullari mavjud:

- elektron darsliklar, multimedialar yaratish:
- axborotni so'z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish:
- axborotlarni ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish:
- axborotlarni amaliy mashg'ulotlar orqali berish:
- nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish:
- savol-javob, anketa tuzish:
- adabiyot, gazeta, jurnallarni tahlil etish va boshqalar.

Bu usullarni amalga oshirishda har bir o'qituvchi talabalarning o'quv fanlarini o'zlashtirishda bir qancha masalalar va muammolar bo'yicha mustaqil bilim olishlarini nazarda tutishlari zarur. Fikrlash madaniyatini shakllantirishning asosiy sohalari va vositalari: ta'lim-tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, ilmiy, ommabop adabiyotlar, milliy urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqalar. Mustaqil bilim olish mustaqil ravishda o'qish va o'rganish, mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liq. Mustaqil fikrlash orqali kishida kelajakka intilish, uni tasavvur qilish va inson sifatida istiqbolga ishonch xususiyatlari kamol topadi.

Demak, ijodiylik, faollik talaba bilimini mustahkamlashda, mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, jahon va hamdo'stlik mamlakatlari, O'zbekiston olimlarining u yoki bu mutaxassislik bo'yicha yaratgan ilmiy asarlari, ilmiy – texnik axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarni egallashlari maqsadga muvofiqdir. Davr talabi asosida yaratilgan yangiliklar, ta'limning zamonaviy interfaol shakllari, usullari, vositalarini o'rganish yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarini egallash kabi vazifalar ham mustaqil bilim mazmuniga kiradi. Talabalar faolligini oshirish, ularning mustaqil bilim egallashlari doimo o'qituvchi diqqat markazida bo'lishi zarur. Buning uchun:

- har bir professor – o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha mavjud kitob, adabiyotlar, gazeta – jurnallar, didaktik materiallarni mustaqil ravishda o'qib borishi;
- talabalarda mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarini shakllantirish;
- mutaxassislik bo'yicha bilimlar zaminini yaratishi va ulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- davlat ta'lim standartlari asosida yaratilgan yangi o'quv reja, dasturlar, o'quv-

qo'llanmalarning ma'no mazmunini o'rganishi;

– o'qiyotgan fani mazmunini milliy istiqloq g'oyasi, milliy istiqloq mafkurasi asosida talabalar ongiga yetkazish;

– talabalarning fanlar bo'yicha egallayotgan bilim, ko'ninma va malakalarini DTS talablari darajasida bo'lishiga erishishini ta'minlashlari lozim.

Har bir mutaxassis o'zining umumiy bilimi va madaniy darajasi yuqori bo'lishi uchun doimo o'z ustida mustaqil ravishda ishlashi, o'rganishi lozim. Buning uchun u o'z mutaxassisligi, egallagan lavozimi bo'yicha yangiliklarni mafkura, ma'naviyat sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirilgan taqdiridagina uning umumiy bilim va madaniy darajasi yuksak saviyada bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonova O. *O'quvchilarning ma'naviy madaniyatini shakllantirish*. –T.: Fan, 1993-y. –112-b.

2. Ochilov M. *Muallim – qalb me'mori*. – T.: O'zbekiston, 2001. – 432-b.

3. G'oziyev E. Jabborov A. *Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. O'quv qo'llanma*. –T.: 2003. – 124-b.

4. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M.E., Hasanbayeva O.U. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. – T.: Fan, 2008. – 475-b.

Mirjalol NIYOZQULOV,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini zarur ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashni, ularning metodik mahoratlarini oshirish uchun uzluksiz malaka oshirishlarini to'g'ri va oqilona mexanizmlarini yo'lga qo'yish lozimligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, tajriba, ommalashtirish, targ'ib qilish, ma'lumot, hamkorlik, mahorat.

В статье рассматривается применение современных педагогических, инновационных и информационных технологий в образовательном процессе для повышения качества и эффективности начального образования в общеобразовательных школах. Также было отмечено, что необходимо обеспечить учителей начальных классов необходимой научной и методической литературой, установить правильные и разумные механизмы непрерывного профессионального развития, повышения их методических навыков.

Ключевые слова. Инновационные и информационно-коммуникационные технологии, опыт, популяризация, продвижение, информация, сотрудничество, навыки.